



ADABIYOTSHUNOSLIK METODOLOGIYASIDA PSIXOLOGIK USULNING TIBBIY FIZIOLOGIYA BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI

Muallif: Yakubova Habiba Otabayevna ¹

Affiliyatsiya: Qashqadaryo viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15194689>

ANNOTATSIYA

Badiiy asarda qahramon obrazini tugal yaratish juda muhim. Qadimdan to hozirgacha matnda tasvirlangan voqelik mohiyatini ifodalashda turlicha shakl va usullardan foydalanishga harakat qilingan. Adabiyotda badiiy obrazni individual tashqi xususiyatlarsiz xarakter yoki tip sifatida ko'rsatish qiyin. Bu qahramon nutqi, portret, jest va mimikalar, monolog, tashqi organlarning fiziologik holati, miyadagi o'y-fiklar monologi bo'lishi mumkin. Ammo adabiyot taraqqiyoti davomida psixologizmga nisbatan munosabat o'zgarib boradi. Zamonaviy psixologiya taraqqiyoti ongning eng inja o'ylarigacha yoki ongostidagi xotiralargacha yuzaga chiqarib tahlil qilishni nazarda tutadi. Inson psixologiyasiga yondashish nuqtayi nazarini ko'plab fan sohalarida mavjud. Tibbiyot, psixologiya, falsafa, mantiq, din, adabiyotshunoslik vahokazolar. Ular psixologiya va xarakterning turli qirralarini aniqlashga harakat qiladi. Biroq "inson mohiyati nima?" degan savolga badiiy asarchalik bir vaqtning o'zida ko'plab rakurslardan yondashadigan soha bo'lmasa kerak.

Kalit so'zlar: Metodologiya, usul, uslub, psixologizm, ongsizlik, fiziologizm, favqulotda holat tasviri

Badiiy asarda xarakter ifodasi uchun turli vositalar va ijodkorning individual uslubi bo'ladi. Qahramon psixologiyasi va fiziologik holatini tasvirlashda eng qulay vositalardan biri bu kasalliklar yoki bemorning atrofida unga bog'liq bo'lgan epizodlar voqeligidir. Kasallik mavzusi san'atning adabiyot, rassomlik, haykaltaroshlik, kino kabi ko'plab turlarida aks etadi. Dunyo adabiyoti tarixida badiiy qahramonda ko'p uchraydigan kasalliklar sil, vabo, zotiljam, chechak, epilipsiya, moxov kabilardir. Ma'lumki, dard yoki epidemiyalar kutilmaganda sodir bo'ladigan favqulotda holatlar. Inson ularga ruhan va jismonan tayyor bo'lmaydi. Ayni o'sha jarayon yozuvchi uchun qahramon psixologiyasini ko'rsatishga qulay nutqa. Biroq adib bemorini faqatgina badiiy jihatdan tasvirlashi kamlik qiladi, u kasallik bilan kechadigan klinik belgilarni ham to'g'ri ko'rsatishi kerak. Kasallik belgilariga nisbatan noto'g'ri yondashuv voqelik realligiga putur yetkazishi mumkin.

Taniqli yozuvchimiz O'tkir Hoshimov sil kasalligi bilan og'rikan bemor obrazidan "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida foydalanadi. O'tgan asrning o'rtalarigacha bu kasallik davolab bo'lmaydigan deb hisoblangan. U havo tomchi orqali yuqib, belgilari yo'tal, isitma, tez sur'atda ozib ketish, terlash, horg'inlik, kuchsizlik bilan o'tadi. Silga

chalingan qahramon jahon adabiyotida Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romanida uchraydi. Yozuvchi Marmeladovning holatini “Keyingi kulgu yana besh daqiqa davom etgach, chidab bo‘lmas yo‘talga aylandi. Ro‘molda biroz qon qolib, peshonada ter tomchilari paydo bo‘ldi”(Jinoyat va jazo). Sil kasalligiga chalangan yana bir qahramon Nodar Dumbadzening “Abadiyat qonuni” romanida Bachana Rameshvili obrazida beriladi. Muallif bolaning bedavo dardga chalangani tasvirining butun fojiasini yosh Bachanaga tashxis qo‘ygan shifokorning yuz ifodasida beradi. Shifokorning bu kasalga chalangan bemorlarga tez-tez duch kelishi tabiiy holat bo‘lsa-da, yoshgina bolaning chalinishi unga favqulotda qayg‘uli ta‘sir qiladi.

- “Ko‘pdan buyon isitmang chiqadimi?
- Bir oycha bo‘lib qoldi.
- Terlaysanmi?
- Kunduzi faqat kaftlarim terlaydi, ammo kechasi suv bo‘lib ketaman! – Bachana terlagan kaftini shimiga artdi.
- Yo‘talasanmi?
- Ba‘zan, lekin yo‘talganda qattiq yo‘talaman, nafasim ichimga tushib ketadi, - dedi Bachana ma‘yus tortib.
- Tufugingda qon sezmadimmi?
- O‘tgan hafta sal bor edi, mana muncha, - Bachana chimchilog‘ining uchini ko‘rsatdi”¹.

Muallif asarda tasvirlagan kasallik o‘zining tibbiyotdagi klinik belgilari bilan bir xil. Sil aynan dialogda berilgan kabi kechadi. Biroq, Dumbadze fojia ko‘lamini alomatlar bilan emas, obrazlar tashqi ko‘rinishida, xatti-harakatlarida berishga urinadi. Natijada badiiy jihatdan ham, ilmiy jihatdan ham pishiq jumlar yuzaga keladi.

- “Unaqa bo‘lsa aytib qo‘y... - do‘xtirning tomog‘iga bir narsa qadalib, gapirolmay qoldi.
- Nima deyin?
- Aytginki... - do‘xtir tutilib-tutilib so‘zlardi. – Aslo qo‘rqma, o‘g‘lim! Hali kech emas! Sen baquvat yigitsan, har qanday dardni yengib ketasan!
- Buvamga nima deyin, Yevgeniy amaki?
- Buvangami? – do‘xtir birdan qizishib ketdi. – Borib ayt, u nokas darrov hamma narsasini: uyini, hovlisini, bor bisotini sotib, senga penitsillin olsin. Eshitdingmi! Orqaga surmasin!

Do‘xtir stolning yoniga chopib borib pul bilan yo‘llanmani oldi-da, mayda-mayda qilib yirtib, shiftga uloqtirdi, keyin Bachanaga o‘girildi. Uning rangiga qarab bo‘lmasdi”².

Roman bosh qahramoni yosh bola. U o‘zining qanday kasalga chalanganini tushunmay qiynaladi, lekin kitobxon muallif tasvirlagan shifokorning fiziologik holati orqali voqelik dahshatini anglab turadi. Odatda kishi qattiq hayajonga tushsa yoki qo‘rqsa rangida o‘zgarish sodir bo‘ladi, ovozi titraydi, asabiylashganidan chakka tomirlari bo‘rtadi, gapirishga qiynaladi. Dumbadze psixologizmning shu jihatlari olib shifokorni og‘ir dardga chalangan bolaga nisbatan juda muloyim, shafqatli, hamdard, shu bilan

¹ Dumbadze.N. Abadiyat qonuni. – T.: Zukko kutubxon, 2021. 34-b.

² Ko‘rsatilgan manba. – 35-36-bet

birga chorasiz qilib ko'rsatadi. Ammo gap Bachananing bobosiga ko'chganida Yevgeniy amaki istihola qilib o'tirmaydi.

O'zbek hikoyachiligida "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi misolida muallif qahramonlari psixologiyasi, xarakterini og'ir sharoit va kasallik girdobida ochadi. Sarlavhani "Urushning so'nggi qurboni" deb nomlagan bo'lsa-da, voqelik urush ortida, tinch yerlarda kechgan. Biroq, urush butun mamlakatni qamrab olgandi. Yetishmovchilik, og'ir turmush, kasallik, jinoyatlarning ko'payishi aynan urush sabab kelib chiqqan. Hikoya ekspozitsiyasiyoq qahramonlar psixologiyasi haqidagi ilk tasavvurni beradi. "Shoikrom ayvon to'ridagi sandal chetida xomush o'tirardi. Allaqachon bahor kelib kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo bu to'g'rida hech kim o'ylab ko'rmaganini u endi payqaganday g'ashi keldi. Bo'z ko'rpa ustidan yopilgan, shinni dog'i tekkan quroq dasturxon ham, hozirgina go'jadan bo'shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog'och qoshiq ham uning ko'ziga xunuk ko'rinib ketdi"³. Turmushning moddiy holati qahramonning nazari bilan juda aniq ifodalangan. Shinni dog'i tekkan quroq dasturxon, sopol tovoq, bandi kuygan yog'och – bu haminqadar kechayotgan turmush manzarasidir. Bahor kelganiga qaramay olib tashlanmagan sandal esa frontortida mehnat qiladigan ishchi kuchining yetishmasligi, aksariyat erkaklar jang maydonida, qolganlari esa ta'minot ishida band ekaniga ishora. Badiiy asardagi har bitta detal xarakter ochilishida xizmat qilgan. Xira nur tarayotgan lampochka, olisda uvillayotgan it ovozi, qorong'ulik kabi motivlar birgalikda Shoikromning yuzidagi turmushdan norozilik ifodasini yanada bo'rttirib ko'rsatadi.

Silga chalinib qolgan ukasi Shone'mat obrazini esa muallif quyidagi jumalarda aniq chizadi. Uning qoqsuyak bo'lib qolishi, katta-katta ko'zlarining chuqur botishi kasallikning klinik belgilariga mos. Ammo muallif dard ko'lamini bemorning ko'zlaridagi ma'noda beradi. Ularda hayotdan umidini uzgan, tuzalmasligiga iqrorlik ma'nolari ko'rinadi. Muallif bu ifodani hikoyaning so'nggida yanada ta'sirliroq beradi. "Necha haftalardan buyon o'rnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib, emaklab chiqqan, ko'ylagining yelkari osilib turar, katta-katta ko'zlari vahima bilan boqar edi"⁴. Shone'mat akasiga hech narsa demaydi, biroq uning qarashi fojining bo'y-bastini aniq ko'rsatadi. Ammo hikoyada "Oyijon, oching ko'zingizni! - dedi u gezarib ketgan lablari bilan onasining muzday yuzidan o'pib" degan jumla borki, bu tasvirda biroz noaniqlikni yuzaga keltiradi. Chunki Qumri xola tok urgan vaqtda baqirib yuboradi. Qichqiriqdan uyg'onib ketgan Shoikrom hovliga otiladi. Qulupnay pushtalari orasidagi qaddi bukilib qolgan onasi ekanini anglagunicha soniyalar o'tadi. Biroq muallif Shoikrom onasini quchoqlab o'pganida "yuzi muzday" deya tasvirilaydi. Ma'lumki, inson vafot etganidan keyin tana birdaniga sovimaydi. Qon qotib, a'zolardagi hayot faoliyati butunlay to'xtagunicha vaqt kerak. Hikoyada esa onaning qichqirig'idan o'g'ilning yugurib chiqishi, onani quchoqlashi va marhumning yuzi sovishi, ayniqsa, muzlab qolishi orasidagi vaqt nomutanosib ifodalangan.

San'at, xususan, badiiy adabiyot doim go'zallikni kuylayvermaydi. Adabiy asarlarda ba'zida kasalliklar, jarrohlik opertasiyalari, o'lim motivlari va umuman yoqimsiz

³ O'.Hoshimov. Urushning so'nggigi qurboni. – T.:G'afur G'ulom,2002. – 9-bet

⁴ Ko'rsatilgan manba: 11-bet

tuyuladigan holat va ta'bimizni xira qiladigan vaziyatlarni tasvirlaydi. Kasalliklar esa inson irodasiga bog'liq bo'lmagan favqulotda jarayondir. Jahon adabiyotida ham u kutilmagan va butunlay inson irodasiga bo'ysunmaydigan voqelik sifatida beriladi. Masalan, moxov kasali bilan og'rikan bemorlar obrazi bor. Bu kasallik terining jiddiy shikastlanishi fonida kechgani uchun tashqi ko'rinishni xunuklashtiradi. Ehtimol, shu sababdan ko'pchilikda ulardan qo'rqish va jirkanish hissi mavjud bo'ladi, hattoki ba'zi o'rinlarda ularni ta'qib qilish holatlari ham uchragan. Misol uchun Shillingning "Moxovlar" romanida bu kasallik bilan og'rikan bemorlar kolonnasidagi og'ir hayot tasviri ishonarli ko'rsatilgan. Bunda epidemiya qahramonlarning tana a'zolaridan ko'ra taqdirini, yashash tarzini, butun hayotini o'zgartirib, o'g'irlashtirib yuborganiga guvoh bo'lish mumkin.

Insoniyat o'tgan asrda ocharchilik, urushlar, epidemiyalar kabi ko'plab falokatlarni yengib o'tgan. Bugun ocharchilikdan ko'ra semirib ketib vafot etayotganlar ko'proq. O'tmishda odamlar tabiat hodisalarini ilmiy sharhlashni bilmaganlar. Xastaliklar va epidemiyalar keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlar, virus, bakteriyalar mavjudligi haqida tasavvur ham qila olmasdi. Ular kasalliklar qayerdan paydo bo'lib, undan qanday qutulish mumkinligini tushunishmagan. Ko'pincha xudoga yoki o'zlari sig'ingan narsalardan yordam so'rab iltijo qilishgan. Ularning har qanday narsadan madad kutishining yana bir sababi shundaki, yaqin vaqtlargacha shifokor xizmati ma'lum kishilarninggina imtiyozi edi. Aksariyat odamlar shifokorga borishga yoki pul to'lashga qodir bo'lmagan. Aynan shu holat va uning qahramon psixologiyasidagi tasviri Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasida uchraydi. Adabiyotshunos olim Alimuhammedov adibning qahramon psixologiyasini tasvirlashdagi mahoratini ushbu hikoya misolida batafsil ko'rsatadi. Olimning tasvirdagi "me'yor" masalasi e'tiborni tortadi. Chunki adib hikoyada kasalning fiziologik holatini ortiqcha bo'yoqlarda ifodalama-da, o'quvchi ayolning o'lim to'shagida yotganini biladi. Sotiboldining moddiy ahvoli ma'lum, qo'li kalta. Baxshidan, tabibdan, kampirlardan madad kutishdan o'zga iloji yo'q. Muallif bu o'rinda ijtimoiy hayot va davr tasvirini ham voqelik qatiga singdirib o'tadi. Aholining pastki qatlamidan bo'lgan Sotiboldining kasalxonaga yaqinlashishga imkoni yo'q. A.Qahhor qahramonlarning so'nggi ilinji sifatida to'rt yashar qizchanning tongda o'qiydigan duosini ko'rsatadi. "Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni!"⁵ – deya maslahat beradi qo'shni kampir. Bola ham – "Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin..."⁶ deya o'zi tushunmagan holatda, uyquaralash yaratgandan madad so'raydi.

Taniqli psixolog va psixoterapevt Valeriy Sinelnikov "Kasalligingizni seving" nomli tadqiqotida tibbiy amaliyoti davomidagi tajribalariga suyanib, kasallik sabablarining barchasi insonning ichida yashiringanini kasallikning tashqi belgilari esa shunchaki uning foni ekanini tushuntiradi. Olimning modeli inson ongi, ongsizlik, ongosti tushunchalariga yangicha yondashuv bo'ldi. U taklif qilgan modeldagi asosiy fikrga ko'ra "biz yashayotgan borliq bolalikdan shakllangan ong dasturimizdir, dunyomiz ham

⁵ Abdulla Qahhor. Anor. Hikoya va qissalar. – T.:G'afur G'ulom, 2012. B-86

⁶ Ko'rsatilgan manba: B-86

fikrlarimizning tashqi aksi, o'zimizni o'zimiz yaratamiz, o'zimizni o'zimiz o'zgartiramiz"⁷[6, p. 29-30]. Olim o'z fikrlarini dalillash maqsadida fransuz inqilobchisi Jan Pol Marat hayoti va fojiasini misol keltiradi. Jan Pol Marat teri kasalligi ekzema(dermatologik kasallik bo'lib, teridan toshma toshishidir) bilan og'rikan. Sinelnikov esa teri bilan bog'liq kasalliklarni quyidagicha izohlaydi: "Terida uchraydigan kasalliklar ruhiyatni ifloslantirgan, tashqariga chiqmasdan bostirilgan his-tuyg'ular bo'lib ular o'zini tanadan ozod qilishga intiladi. Bular tashvish, qo'rquv, doimo nimadandir xavfsirash, nafrat sabrsizlik hislari bo'lishi mumkin. Yoki kimdandir g'azablanish va aybdorlik"⁸ [6, b. 329]. Badiiy adabiyot, psixologiya va tibbiyotning matndagi kesishish nuqtalarini hisobga olgan holatda tadqiqotchining fikrini tubandagicha izohlashimiz mumkin bo'ladi: agar badiiy qahramon doimiy stress, qo'rquv va xavotirda yashasa ongidagi o'z-o'zini yemirish dasturini faollashtiradi, tashqi muhitga, atrofidagi odamlarga yo'naltirilgan yomon energiya o'ziga qaytadi va kasalliklarni keltirib chiqaradi. Inson tashqi a'zolari harakati va ularning holatini, aynan ong dasturlashi, ularga miyadagi fikrlar buyruq berishi to'g'risidagi nazariya tibbiyot va psixologiyada allaqachon isbotlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, badiiy asar tahlilida psixologik metodning o'rni juda katta. Tibbiy fiziologiya esa ushbu metodning ajralmas bo'lagidir. Chunki inson ruhiyati va tashqi organlar faoliyati bir butun tizimni tashkil etadi. Psixologizm va fiziologizmning badiiy tasvirdagi omuxtaligi tasvirning potik jihatdan mukammalligini ta'minlaydi.

⁷ Беспалов, А. Н. Структура портретных описаний в художественном тексте среднеанглийского периода [Текст]: дис. ... канд. филол. наук : 10.02.04. / А. Н. Беспалов. – М., 2001. – 29-30 с.

⁸ Беспалов, А. Н. Структура портретных описаний в художественном тексте среднеанглийского периода [Текст]: дис. ... канд. филол. наук : 10.02.04. / А. Н. Беспалов. – М., 2001. – 160 с.